


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

***MALAKAVIY TA'LIM METODIKASIDAN  
AMALIY MASHG'ULOTLAR***

**uslubiy ko‘rsatma**



**Qarshi – 2009**

Mazkur uslubiy ishlanma bakalavriat yo‘nalishi 5140900 – kasb ta’limi (transport vositalarini ishlatish va ta’mirlash) sohasi bo‘yicha tasdiqlangan namunaviy ishchi dasturga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus kasb – hunar ta’limi, ilmiy uslubiy va o‘quv – uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashida 2 – sonli №DE/05-02-12-068 raqamli 12.02.2005 yil tasdiqlangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “O‘quv uslubiy qo‘llanmalarni tuzish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmasi” ga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: dots.E.Turdiyev, G.Ishmurodova, B.Berdiyev

Taqrizchilar: Q.O.Mustafoev – “Kasb ta’limi” kafedrasida dotsenti.

B.Xidirova – “Pedagogika” kafedrasining dotsenti.

Metodik ishlanma “Kasbiy ta’lim” va “Mexanika va transport vositalarini ishlatish” kafedrasida (qo‘shma bayonnoma №7 4.01.09 yil va fizika – matematika fakultetining uslubiy komissiyasi yig‘ilishida bayonnoma №5 11.01.09 yil) ko‘rib chiqilgan va o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

## TUSHUNTIRISH XATI

Malakaviy ta'limi metodikasi kasb ta'limi fakulteti talabalarining pedagogika, psixologiya hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini amalga tatbiq etish, kasb – hunar kollejlari o'z ixtisosligi bo'yicha dars berishning shart – sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi fan hisoblanadi. U o'z oldiga barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan ulug' inson kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash kabi aniq maqsadni qo'yadi.

Kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotning maqsadi talabalar (tinglovchilar) ning o'quv materialini o'rganishdagi faolligini oshirish yo'li bilan ularning o'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil o'zlashtira olish imkoniyatlaridan eng maqbul tarzda foydalanishdir.

Amaliy mashg'ulotlarining tashkiliy-metod asoslari qo'yidagilardan iboratdir. Umumiy koidalar:

- talabalar (tinglovchilar) ning amaliy ishlarini o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida, didaktik tamoyillar asosida amalga oshirish;
- talabalar (tinglovchilar) ning amaliy ishlarini kasb ta'lim metodikasi fani, uni bo'limlari, ayrim mavzulari bo'yicha tashkil etish, o'quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlash;
- talabalar (tinglovchilar) amaliy ishlarni bajarishlari va yakunlashlarida o'qituvchining bevosita yordami;
- amaliy ishlar tugagach, talabalar (tinglovchilar) o'quv materialini qanchalik o'zlashtirganini aniqlash uchun munozora, bahs, amaliy o'yin va hakoza larni tashkil etish;
- talabalar (tinglovchilar) mustaqil ishlarda o'zlashtirgan bilim va malakalarni o'z kasbkorlik faoliyatlarida qo'llay olishlari nuqtai nazaridan, o'rganilayotgan fanlarga bog'lab, qarab chiqish kerak;
- talabalar (tinglovchilar) ning har bir amaliy ish natijalarini konspekt, tayyor ish, grafik ish, referat va hakoza larni sifatida topshirishlari;
- talabalar bajargan eng yaxshi ishlar tanlovini o'tkazish. g'oliblarni rag'baglantirish.

Shuningdek, talabalar bilan ishlashning turli masalalari bo'yicha mustaqil fikr yuritish, mantiqli fikr bildirish, mantiqli xulosalar chiqarish iqtidorni tarkib toptiradi, tegishli adabiyotlar, ilmiy tavsiyalar va ma'lumotlardan foydalanish ko'nikma va malakalarini takomillashtiradi.

### Amaliy mashg'ulot №1.

#### Malakaviy ta'limining metodologik asoslari.

**Mavzuning maqsadi:** kasb – hunar kollejlari o'quvchilar Malakaviy ta'limining ilmiy-pedagogik va metodologik asoslari ifodalangan turli-manbalar va materiallarni ilmiy tahlil qilish, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish. **Mavzuning mazmuni:** Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalalariga doir materiallarni tahlil qilish, bunda ularning kasb-hunar kollejlariidagi Malakaviy ta'limi mazmuniga ta'sirini hisobga olish. Ta'lim to'g'risidagi qonun va kasb-hunar ta'limi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" Malakaviy ta'limi masalalari bilan tanishish. Kasb-hunar kollejlarining Malakaviy ta'limi bo'yicha o'quv dasturlarni tahlil qilish va ular o'zaro bog'likligining asoslarini aniqlash. Malakaviy ta'limining har qaysi muallif bayon qilgan metodologik asoslari haqida tushuncha berish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. K.Davlatov "Mehnat va kasb ta'lim-tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar". Toshkent. O'qituvchi-1995 y. 6-14 betlar.

2. K.Davlatov, A.Vorobyev. I.Karimov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1992 y. 3-17 betlar.

3. Xodjaboyev A.R. Ikromov A.I. Inoyatov. "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlik mahoratini shakllantirish" Toshkent-2004 y.

4. B. Insapov. "Mehnat ta'limini o'qitish" metodikasi. Toshkent-2001 y. 5-7 betlar.

5. D. N. Razzoqov, E. J. Turdiyev, K. O. Mustafayev "Kasb ta'limida o'qitish texnologiyalari" Toshkent -2003 i. 1-10 betlar.

6. Turdiyev E. J., Otayorov SH. X. Xasanov "Kasb ta'limi metodikasi" Qarshi -2004 y. 4-10 betlar.

7. Kasb hunar ta'lim muammolari jurnali-

8. Ta'lim muammolari jurnali.

9. Xalq ta'limi jurnali. 2000 y; 2001 y, 2002 y;

2003 y; 2004 y; 2005 y.

**Topshiriq.** Maktab va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari mehnat va Malakaviy ta'limining metodologik asoslari mazkur maktablar va kasb-hunar kollejlari qayta qurishning asosiy yo'nalishlari mazmuniga bog'liqligini yoritish.

#### **Nazorot uchun savollar.**

1. Yuqori organlarning fan-texnika taraqqiyotini

jadallashtirish haqidagi qanday hujjatlarni bilasiz?

2. O'rta va oliy maktabni qayta qurishga doir qanday materiallarni bilasiz?

3. Maktab va kasb-hunar kollejlarining kasb ta'limi bo'yicha o'quv dasturlari orasidagi bog'liqlikni tushuntiring.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rta va oliy o'quv yurtlarini qayta qurishning yo'nalishlarini tushuntiring.

5. Malakaviy ta'limi yo'nalishlarining o'zgarishi haqida nimalarni bilasiz?

#### **Amaliy mashg'ulot №2**

**Kasb-hunar kollejlarining o'quv-meyoriy hujatlari bilan tanishish va ularni tahlil qilish.**

**Mavzuning mazmuni:** Davlat ta'lim standartlariga (DTS) qo'yiladigan umumiy talablar: o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar. O'quv rejalariga qo'yiladigan talablar o'quv rejasidagi fanlarning bloklar bo'yicha taqsimoti, fanlar, ularning ketma-ketligi, haftalik akadem soatlar miqdori amaliyotlar uchun soatlar miqdorining kurslar bo'yicha taqsimoti tahlili. Kasb hunar kollejlari mutaxassislik bo'yicha fanlari, o'quv dasturlar mazmuni bilan tanishib chiqish. Istiqbolli, mavzuli reja tuzish. Kalendar mavzuli reja mazmuni va uni tuzish bilan tanishish.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. Abdullayev A. X. Dehqonbayeva Z. A. "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoq standartlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy qo'llanma" Toshkent- 2001 y. 4-20 betlar.

2. Abdullayev A. X. Ametov A. K. "Kadrlar tayorlash milliy dasturi bo'yicha falsafasi va DTS larii o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma" Toshkent-2003 y. 36-51 betlar.

3. Xodjaboyev A. R. Ikromov A. I. Inoyatov. I. "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlik mahoratini shakllantirish" Toshkent-2004 y. 51-65 betlar

4. Kasb-hunar ta'limi jurnali. Toshkent 2004, 2005, 2006 yillar.

5. "Ta'lim muammolari" jurnali. Toshkent 2004, 2005, 2006 yillar.

6. Xalq ta'limi jurnali. Toshkent 2004, 2005, 2006 yillar.

**Topshiriq.** O'quvchilarga ma'lum bir kasbni o'rgatish misolida o'quv dasturini strukturasi va asosi masalalari mazmuni bilan tanishish. Uning hozirgi talabga muvofikligi darajasini aniqlang.

#### **Naeorat uchun savollar.**

1. "Standart" so'zini ma'nosini tushuntiring?

2. DTS lariga qanday umumiy talablar qo'yiladi?

3. DTS larida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni va sifatiga qanday talablar qo'yiladi?

4. O'quv rejasida fanlar bloklari bo'yicha qanday taqsimlangan?

5. Kasb-hunar kollejlari o'quv rejalarida haftalik akadem soatlarning miqdori, amaliyotlar bo'yicha o'quv soatlari miqdori qanday taqsimlangan?
6. Kasb-hunar kollejlarining mutaxassislik fanlariga qaysi predmetlar kiradi?
7. O'quv dasturlari qanday ketma - ketlikda tuzilgan?
8. Istiqbolli, mavzu reja deb nimaga aytiladi va u qanday tuziladi?
9. Kalendar mavzuli reja qanday tuzilgan?

### **Amaliy mashg'ulot. №3**

#### **Kasb – hunar ta'limi tamoyillari**

**Mavzuning maqadi:** Kasb-hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillarni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

**Mavzuping mazmuni:** Metodologik tamoyillar. Umumdidaktik tamoyillar. Umumtexnik fanlar bilan maxsus texnologiyaning birligi tamoyili. Politexnik tamoyil. Kasbning qaror topish tamoyili. Onglilik va faollik. Ilmiylilik va sistemalilik: Nazariya va amaliy birligi. "Ta'lim - tarbiya birligi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limida qo'llash.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. Karimov I. A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori" T. "Shark" O'zbekiston 1997.
2. Xalilov. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lim to'g'risidagi qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus Ta'lim Vazirligi". T. 1998.
3. K. Davlatov. Mehnat va kasb-ta'lim tarbiyasida amaliy mashg'ulotlar. T. O'qituvchi 1995. 46 -49 bet.
4. D. N. Razzoqov. E. J. Turdiyev. K. O. Mustafayev. "Kasb ta'limida o'qitish texnologiyalari" T. Uz. PFITI. 2003.
5. K. Davlatov, A. Vorobyov. I. Karimov. "Mehnat va kasb ta'limini nazariyasi hamda metodikasi" Toshkent. O'qituvchi 1992. 81 -87 betlar.
6. Kasb-hunar ta'limi jurnali. 2006 yil № I. 17 -18 bet, 13-14 bet.
7. Xalq ta'limi jurnali. 2005 №4; 17 - 21 bet. 91-94 bet.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Darslik mazmunini tahlil qilishda qanday prinsiplardan foydalaniladi?
2. Metodologik tamoyil haqida tushuncha bering.
3. Umumdidaktik tamoyillarni sanab bering.
4. Umumtexnik fanlar bilan maxsus texnologiyaning birligi tamoyilini mohiyatini tushuntiring.
5. Politexnik tamoyilning mazmunini tushuntiring.
6. Kasbning qaror topishi tamoyilini tushuntiring.

**Topshiriq:** O'quv fani mavzularining mazmunini tahlil qilish va yo'nalishlarni o'rganish. O'quv fani mazmunini tahlil qilishda hisobga olinadigan asosiy omillar.

Metadologik materialning aks etishi:

Didaktik materiallardan foydalanish:

Politexnik prinsipni qo'llash:

- Laboratoriya ishlarini tahlil qilish:

- Fanning har bir mavzui bo'yicha fanlararo aloqa va fanlar ichidagi bog'lanishlarni

o'rganish:

- Xulosa chiqarishning induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanish:

Materialni barqaror va dinamik qismlarga ajratish.

### **Amaliy mashg'ulot №4.**

## **Kasb-hunar kollejlariida kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasining o'quvchilarning o'quv - mehnat faoliyatida tutgan o'rni.**

**Mavzuning maqsadi:** Kasb ta'limi o'qituvchi (usta) sining kasb-hunar kollejlari malakali ishchilarni tayyorlashdagi xizmati haqidagi bilimlari o'rganish.

**Mavzuning mazmuni:** Kasb ta'limi o'qituvchisi (ustasi) ga qo'yiladigan talablar. O'qituvchini darslarga tayyorlanishi. O'quv ustasining o'quv yiliga va darslarga tayyorlanishi.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K. Davlatov "Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar" T. O'qituvchi 1995. 121—123 betlar.
2. K. Davlatov, A. Vorobyov, I. Karimov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi" T. "O'qituvchi" 1992. 17-19, 146-152 betlar.
3. Uzluksiz ta'lim jurnali T. 2006. № 1. 13 -17,98-111 betlar.
4. D. N. Razzoqov, E. J. Turdiyev, Q.O. Mustafayev "Kasb ta'limida o'qitish texnologiyalari". T. 2003. 89 - 94 bet.
5. Kasb - hunar ta'limi jurnali 2006. №3 16 -18, 29 -30 betlar.
6. B. Insapov "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi". T. 2001. 10-11, 72-79 betlar.
7. Turdiyev E. J. Otayorov G.L. Xasanov R. "Kasb ta'limi metodikasi" Qarshi -2004 yil 19 - 21. 86 -89 betlar.
8. Xalq ta'limi jurnali №4; 4-7 bet. 2004 №3; 73 - 78 betlar. 2004 yil №2; 31-34, 2004 №1; 143 - 145 betlar.
9. Kasb - hunar ta'limi jurnali.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Kasb-ta'limi o'qituvchisi (ustasiga) qanday talablar qo'yiladi?
2. O'qituvchi (usta) umuman o'quv yiliga va har bir mashg'ulotga qanday tayyorlanadi?
3. Kasb ta'limi o'qituvchisi ta'lim jarayonida qanday o'rin tutadi?
4. Kasb ta'limi o'qituvchisining kasbkorlik sifatlarini tushuntiring.
5. Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasining vazifalari, huquq va burchlari haqida siz nimani bilasiz?

**Topshiriq.** Kasb - ta'limi bo'yicha dars rejasini tuzing.

### **Amaliy mashg'ulot №5**

#### **Kasb - hunar ta'limi metodlari**

**Mavzuning maqsadi:** Kasb — ta'limi metodlarini xilma - xilligini o'rganish va metodlarni to'g'ri tanlash.

**Mavzuning mazmuni:** Metod hakida tushuncha. Malakaviy ta'limi metodlarini klassifikatsiyasi. Kasb - hunar ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Noan'anaviy metodlar hakida tushuncha.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K. Davlatov "Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar" T. O'qituvchi 1995. 109 - 120 betlar.
2. D. N. Razzoqov, E. J. Turdiyev, Q.O. Mustafayev "Kasb ta'limida o'qitish texnologiyalari. T. 2003. 69-87,94-96 betlar.
3. K. Davlatov, A. Vorobyov, I. Karimov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi xamda metodikasi" T. "O'qituvchi" 1992. 97- 119 betlar.
4. B.Insapov "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi". T. 2001. 30-38 betlar.
5. Uzluksiz ta'lim jurnali T. 2006 yil № 1; 18-26, 109-111 betlar.
6. Xalq ta'limi jurnali № 6 2004 i 24 - 27 betlar 2005. №6; 8- 146.

7. Kasb-hunar ta'limi jurnali.2006 y. № 3; 17-19 b.

**Topshiriq.** Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi qo'llaniladigan metodlarga, ularni birga qo'llashga o'rganilayotgan materialning xususiyatlariga va ta'lim oluvchilarning tarkibiga bog'liqligini yoritish.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Metod haqida tushuncha bering.
2. Kasb ta'limida metodlar qanday klassifikatsiyalanadi?
- 3- Kasb - hunar ta'limining og'zaki metodlarining mohiyatini tushuntiring.
4. Kasb - hunar ta'limida ko'rgazmalilik metodlarini sanab bering.
5. Kasb - hunar ta'limida muammoli ta'lim metodini tushuntirib bering.
6. Kasb - hunar ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?
7. Noan'anaviy o'qitish metodlari haqida gapirib bering.

#### **Amaliy mashg'ulot № 6**

##### **Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari**

**Mavzuning maqsadi:** bu mavzuni o'rganishdan maqsad malakaviy ta'limining tashkiliy shakllari tushunchasi, dars turlari haqida bilimga ega bo'lish.

**Mavzuning mazmuni:** Malakaviy ta'limining tashkiliy shakllari.

- a) nazariy mashg'ulotlar.
- b) ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya
- v) kasb-hunar ta'limini fermer xo'jaliklari, fermalar, qo'shma korxonalar bazalarida va ijara pudrati asosida tashkil kilish haqidagi bilimlariga ega bo'lish.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K. Davlatov "Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar" T. O'qituvchi 1995. 126 -132 betlar.
2. D.N.Razzoqov, E.J.Turdiyev, Q.O. Mustafayev "Kasb ta'limida o'qitish texnologiyalari" T. 2003. 27 - 33 betlar.
3. K.Davlatov, A.Vorobyov, I.Karimov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi" T. "O'qituvchi" 1992. 91-95 betlar.
4. B.Insapov "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi". T. 2001. 23 -29 betlar.
5. Uzluksiz ta'lim jurnali T. 2006. № 1. 100 -102 betlar.
6. Xalq ta'limi jurnali № 6; 2004 y 24 - 27 betlar 36-38. 33-36 betlar.
7. Kasb - hunar ta'limi jurnali.2006 y. № 2; 5-6, 15-166.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Kasb-ta'limi darslarining qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
2. Kasb-ta'limi darsiga qanday didaktik talablar qo'yiladi?
3. Kasb-ta'limidan nazariy mashg'ulotlar va amaliy laboratoriya darslari qanday tashkil etiladi?
4. Kasb-ta'limi qanday strukturaviy tuzilishlarga ega?
5. Kasb-ta'limi darslarining qanday tiplari bor?

**Topshiriq.** Kasb-hunar ta'limini o'quv ustaxonalarida va korxona sharoitida tashkil etish bilan tanishish.

#### **Amaliy mashg'ulot № 7.**

##### **Malakaviy ta'limi bo'yicha amaliy mashg'ulot darslarini tashkil kilish va o'tkazish metodikasi**

**Mavzuning maqsadi:** Malakaviy ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi bilan tanishish.

**Mavzuning mazmuni:** amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari. Dars jarayoniga o'qituvchinning vazifasi. Havfsizlik texnikasiga e'tibor. Darsni yakunlash.

**Tavsiya etiladigan adbiyotlar.**

1. K. Davlatov "Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar" T. O'qituvchi 1995 yil 80 -81 betlar.
2. D. N. Razzoqov, E. J. Turdiyev, Q.O.Mustafayev "Kasb ta'limida o'qitish texnologiyalari" T. 2003 yil 26- 30 bet.
3. K. Davlatov, A. Vorobyov, I. Karimov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi" T. "O'qituvchi" 1992. 91 - 95 betlar.
4. B.Insapov "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi". T. 2001 yil.72-79 betlar.
5. Xalq ta'limi jurnali № 6; 2004. 4-8 betlar;  
2005 yil №3; 37 - 40 betlar.
6. Kasb - hunar ta'limi jurnali.2006.17-19,27-32 betlar.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Malakaviy ta'limi darslarining tiplarini sanab bering.
2. Amaliy mashg'ulotlar strukturasi haqida ma'lumot bering.
3. Amaliy mashg'ulotlar qanday shakllarda o'tkazildi?
4. Tadqiqot ishlari qanday tashkil qilinadi va o'tkaziladi?
5. O'zgaruvchan grafik bo'yicha ko'rsatmali ishlar qanday tashkil qilinadi va o'tkaziladi?
6. SI tizimining asosiy birliklari. Uning O'zbekistonda joriy etilishi haqida nimalarni bilasiz?

**Topshiriq:** Umumiy ko'rsatmali amaliy mashg'ulotlarni tashkil qiling va o'tkazing.

Ko'rsatmali ishlarning natijalaridan keyingi o'quv jarayonida foydalaning. Umumiy ko'rsatmali laboratoriya ishlarini o'tkazishda ta'lim oluvchilarga baho bering.

**Amaliy mashg'ulot № 8**

**Istiqbolli, mavzuli reja tuzish. Mashg'ulot rejasini tuzish va dars matnini tayyorlash.**

**Mavzuning maqsadi:** O'quvchilarga aniq mutaxassislik fanlaridan istiqbolli, mavzuli reja va mashg'ulot rejasini tuzishni o'rgatish.

**Mavzuning mazmuni:** Ishchi o'quv dasturlari va ulardagi mavzuli reja. Mavzuli rejadagi boblar bo'yicha mavzular taqsimlanishi. Kalendar mavzuli reja mazmuni va uni tuzish. Mashg'ulot rejasini tuzish va dars matnini tayyorlash. Mashg'ulot rejasini. Dars matnini va ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K. Davlatov "Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar" T. O'qituvchi 1995. 199-101 b.
2. D. N. Razzoqov, E.J.Turdiyev, K.O.Mustafayev "Kasb ta'limida o'qitish texnologiyalari" T. 2003 yil 25 - 30 bet.
3. K. Davlatov, A. Vorobyov, I. Karimov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi" T. "O'qituvchi" 1992 yil. 126-138 b.
4. B.Insapov "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi". T. 2001. 66-79 betlar.
5. Uzluksiz ta'lim jurnali T. 2006 № 1. 100 -102 betlar.
- 6.Xalq ta'limi jurnali № 6; 2004, 64 - 67 betlar. 2005 yil №3; 43 -45, 81-83 betlar.
6. Kasb - hunar ta'limi jurnali.2006 i. № 1; 4-5, 4-6 betlar.
7. Turdiyev E.J, Otayevov SH.X, Xasanov R. "Kasb

ta'limi metodikasi" Qarshi -2004. 19-21 betlar. **Nazorat uchun savollar.**

1. Malakaviy ta'limida qanday rejalashtiruvchi hujjatlar bo'ladi?
2. Rejalashtiruvchi hujjatlarni tayyorlaganda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Yillik mavzuli reja nima uchun kerak?
4. Yillik mavzuli rejada kanday materiallar o'z aksini topishi kerak?

**Topshiriq.** O'quv ishlab chiqarish ishlarini meyorlashtirish mavzusi bo'yicha darsni reja konspektini tuzing.

#### **Amaliy mashg'ulot № 9**

##### **Malakaviy ta'limi metodikasidan kurs va bitiruv ishlarini bajarish hamda ularni yoqlash metodikasi.**

**Mavzuning maqsadi:** Malakaviy ta'limi metodikasi kursini o'rganish jarayonida tegishli nazariy laboratoriya va amaliy ishlarni bajarganda shakllangan bilim hamda o'quvlarni mustahkamlash.

**Mavzuning mazmuni:** Malakaviy ta'limi metodikasidan kurs ishlariga qo'yiladigan talablar, ularni rasmiylashtirish. Kurs ishining metodik qismi. Malakaviy ta'limi metodikasidan bitiruv ishlariga qo'yiladigan talablar ularni rasmiylashtirish va yoqlash metodikasi. Malakaviy ta'limi moddiy bazasining tahlili.

##### **Tavsiya ztiladigan adabiyotlar.**

1. B.Insapov "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi" Toshkent 2001. 115-119 betlar.
2. Kasb hunar ta'limi jurnali 2006 yil №1;2-3,6-8 betlar.
- 3, Xalk talimi jurnali 2005 yil №1 18-21 bet. 22-24 bet 24-28 bet. 2005 yil №2. 4-17 bet. 2005 yil №3. 17-20 betlar. 2005 yil №6. 28-33 bet.

##### **Nazorat uchun savollar.**

1. Malakaviy ta'limidan bitiruv va kurs ishini bajarishdan maqsad nima?
2. Kurs ishining tuzilishiga qanday talablar qo'yiladi? Bitiruv ishiga-chi?
3. Siz qanday mavzuda kurs ishi (bitiruv ishi) yozgan bo'lardingiz va nima sababdan?
4. Kurs ishini tayyorlash tartibini tushuntiring.

**Topshiriq;** "Kasb ta'limida o'qitishning texnikaviy vositalardan foydalanish" mavzusida kurs ishi yozing.

#### **Amaliy mashg'ulot №10**

##### **Malakaviy ta'lim fanlaridan nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi.**

**Mavzuning maqsadi:** Malakaviy ta'limidan nazariy mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi bilan tanishish.

**Mavzuning mazmuni:** Nazariy mashg'ulotga tayyorgarlik o'quv material va kerakli jihozlarni tayyorlash. Nazariy mashg'ulot o'quv metodlarini tanlash. Dars sharoitida o'qituvchining vazifasi. Mashg'ulotni yakunlash.

##### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K. Davlatov "Mehnat va kasb ta'lim metodikasi hamda nazariyasi" Toshkent 1992 yil 91-95-betlar.
2. D. Razzoqov , E.Turdiyev ,K. Mustofoyev " Kasb ta'limi uqitish texnologiyasi " Qarshi 2003 26-30-betlar.
3. B Insapov " Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi " Toshkent 2001 72-79-betlar.
4. Xalq ta'limi jurnali №6 2004 yil 4-8-betlar.
5. Kasb-hunar ta'limi jurnali 2006 yil №1 17-19-betlar.

Topshiriq: Kasb – hunar kollejlari o'quv dasturlari bilan ishlash, mashg'ulotning reja bayonnomasini tuzish.

##### **Nazorat uchun savollar.**

1. Dars (mashg'ulot) nima?
2. Kasb – hunar kollejlari qo'llaniladigan dars tiplarini tushuntirish.
3. Nazariy mashg'ulotlarning tuzilishi.
4. Nazariy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan metodlar tuzilishini tushuntiring.
5. Muammoli ta'lim metodining mohiyati.

### **Amaliy mashg'ulot №11**

#### **Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi.**

**Mavzuning maqsadi:** Malakaviy ta'limidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bilan tanishish.

**Mavzuning mazmuni:** Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishga tayyorgarlik. Zarur jihozlar va asbob – uskunalarni hozirlash. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish. Dars jarayonida o'qituvchining vazifasi. Havfsizlik texnikasiga e'tibor. Mashg'ulotni yakunlash.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K. Davlatov "Mehnat va kasb ta'lim metodikasi hamda nazariyasi" Toshkent 1992
2. B.Makiyenko "Hunar – texnika bilim yurtlarida pedagogik protsess". T.: O'qit. 1983
3. E.Turdiyev, B.Berdiyev "Kasb – hunar kollejlari ta'lim modellari". Qarshi–2006 27-30 b.
4. K.A.Loshakov "Avtomobilning tuzilishi". 1992 yil, 231 – 233 betlar.
5. Xalq ta'limi jurnali. 2005 yil, № 3-4 sonlar.
6. Xalq ta'limi jurnali. 2004 yil, № 2 son.
7. E.Turdiyev, B.Berdiyev "Kasb – hunar kollejlari ichki yonuv dvigatellarini noan'anaviy ta'lim metodi asosida o'qitish". Qarshi – 2006, 39 – 45 betlar.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. O'quv dasturi va ishchi reja bo'yicha laboratoriya ishlarining o'rnini aniqlang.
2. Laboratoriya ishlaridan maqsad nima?
3. Laboratoriya mashg'ulotining tarkibiy tuzilishi qanday?
4. Laboratoriyada amal qilinadigan havfsizlik texnikasi qoidalarini ayting.
5. Laboratoriya mashg'ulotida qo'llaniladigan hujjatlar.
6. Xulosa.

Topshiriq: Laboratoriya mashg'ulotining reja bayonnomasini tuzing.

### **Amaliy mashg'ulot №12**

#### **Kasb – hunar kollejlari ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish.**

**Mavzuning maqsadi:** Kasb – hunar kollejlari ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bilan tanishish.

**Mavzuning mazmuni:** Ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishga tayyorgarlik. Obyektlarni tanlash. Yuritiluvchi hujjatlar. Amaliyotni o'tkazish. Hisobot. Amaliyotni yakunlash.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. D.A.Txorjevskiy "Metodika predovaniya obshetexnicheskix dissiplin". T.: O'qit. 1983.
2. B.Makiyenko "Hunar – texnika bilim yurtlarida pedagogik protsess". T.: O'qit. 1983.
3. K.Davlatov, A.I.Varobyov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi". T.: O'qit. 1992.
4. K.A.Loshakov "Avtomobilning tuzilishi". 1992.
5. K.Mirsaidov "Mashina traktor parklariga ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish". T.: O'qit. 1990.

Nazorat uchun savollar.

1. Ishlab chiqarish amaliyotining maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Ishlab chiqarish amaliyotining tashkil etish bosqichlari.
3. Qanday hujjatlar zarur?
4. Amaliyot rahbarining vazifalarini tushuntiring.
5. Ishlab chiqarish korxonalari bilan tuziladigan shartnomada nimalar ko'rsatiladi.
6. Xulosa.

**Topshiriq:** ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish metodikasini ishlab chiqish.

### **Amaliy mashg'ulot №13**

#### **Malakaviy ta'limdan mashg'ulotlarni kuzatish va ularning tahlili.**

**Mashg'ulotning maqsadi:** Malakaviy ta'limdan mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish metodikasi bilan tanishish.

**Mashg'ulotning mazmuni:** Malakaviy ta'limdan mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish rejasi bilan tanishish. Kuzatishga tayyorgarlik. Kuzatish davomida o'qituvchining vazifasi. Darsning tahlili va baholash.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K.Davlatov, A.I.Varobyov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi". T.: O'qit. 1992.
2. B.Makiyenko "Hunar – texnika bilim yurtlarida pedagogik protsess". T.: O'qit. 1983.
3. K.Mirsaidov "Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi". T.: O'qit. 1996.
4. K.A.Loshakov "Avtomobilning tuzilishi". 1992.
5. E.Turdiyev, B.Berdiyev "Kasbiy ta'limda pedagogik amaliyot". Qarshi – 2006

**Nazorat uchun savollar.**

1. Dars (mashg'ulot) deb nimaga aytiladi?
2. Mashg'ulotlarning tarkibiy tuzilishini tushuntiring.
3. Darsni kuzatish va tahlil qilish rejasini tushuntiring.
4. O'qituvchining mahorati qanday baholanadi?
5. Mashg'ulotni kuzatish natijalarini muhokamasi qanday o'tkaziladi?
6. Xulosa.

**Topshiriq:** Mashg'ulotni kuzatish va tahlil qilish rejasi. Biror bir darsni tahlil qilish va baholash.

**Amaliy mashg'ulot №14**

**Avtomobil transportini ishlatish va ta'mirlash bo'yicha mustaqil dars o'tish.**

**Mavzuning maqsadi:** Fan bo'yicha mustaqil dars o'tish va darsning reja bayonnomasini tuzishni o'rganish.

**Mavzuning mazmuni:** Darsni kuzatish va tahlil qilish. Rejasi bilan tanishish. Mashg'ulotning shakli, metodlari, o'qituvchining mahorati va dars sifatiga baho berish. Xulosalash.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

1. K.Davlatov, A.I.Varobyov "Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi". T.: O'qit. 1992.
2. B.Makiyenko "Hunar – texnika bilim yurtlarida pedagogik protsess". T.: O'qit. 1983.
3. E.Turdiyev, B.Berdiyev "Kasbiy ta'limda pedagogik amaliyot". Qarshi – 2006
4. E.Turdiyev, Q.Mustafoev "Kasbiy ta'limda o'qitish texnologiyalari". Qarshi – 2003.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Dars (mashg'ulot) ning qanday tiplarini bilasiz?
2. Mashg'ulotning tarkibiy tuzilmasini ko'rsating.
3. Mashg'ulotning maqsadi qanday belgilanadi?
4. Mashg'ulotning metodi qanday tanlanadi?
5. Mashg'ulotni boshqarish va belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchidan qanday vazifalar talab etiladi.
6. Xulosa.

**Topshiriq:** Mavzu bo'yicha mashg'ulotning reja bayonnomasini tuzish.

## ILOVA

1 – ILOVA

\_\_\_\_\_ fanidan  
\_\_\_\_\_ kurs \_\_\_\_\_ guruhi, sana \_\_\_\_\_  
o'qituvchi \_\_\_\_\_  
Dars mavzusi \_\_\_\_\_  
Dars maqsadi \_\_\_\_\_  
(o'quv tarbiyaviy)

### I. Darsga tayyorgarlik:

- o'quv xonasining sanitar gigiyenik holati;
- kerakli jihozlarning yetarliligi va yaroqlilik holati.
- darsning o'quv – ko'rgazma asboblari va texnik vositalar bilan ta'minlanishi.

### II. Darsni tashkil qilish, mazmuni va o'tkazish metodi:

- darsning o'z vaqtida boshlanishi va tashkil qilinishi.
- dars maqsadining qo'yilishi.
- dars turining tanlanishi.
- vaqt taqsimoti va undan foydalanish.
- material bayonida ilmiylik.
- darsning turli bochiqlarida o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan metodlarning masaradorligi.
- darsda o'quv materialini tushuntirishda tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish.

### III. Dars haqida xulosa.

- qo'yilgan maqsadga erishganlik darsga baho va maslahatlar.

2-ILOVA

Nazariy dars reja-bayonnmasi.

\_\_\_\_\_ fanidan  
\_\_\_\_\_ (guruh) \_\_\_\_\_ (vaqti)  
Dars mavzusi \_\_\_\_\_  
Dars maqsadi \_\_\_\_\_

1. Tarbiyaviy \_\_\_\_\_
2. Rivojlantiruvchi \_\_\_\_\_
3. Ta'limiy \_\_\_\_\_

Fanlararo bog'lanish \_\_\_\_\_

Darsning ta'minlanishi:

- 1.Ko'rgazmali qurollar \_\_\_\_\_
- 2.Tarqatma materiallar \_\_\_\_\_

3.Texnikaviy vositalar \_\_\_\_\_

4.Dasturlashtirilgan vositalar \_\_\_\_\_

5.O'quv joyi \_\_\_\_\_

Adabiyotlar:

Asosiy:

- 1.
- 2.
- 3.

Qo'shimcha

- 1.

- 2.
- 3.

Dars shakli: \_\_\_\_\_

(dars elementlari va taxminiy taqsimot vaqti ko'rsatiladi).

Masalan: Aralash dars uchun

1. Darsni tashkil etish (2-3- daqiqa )
2. O'tgan dars mavzusini va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni qaytarish (10-15daqiqa)

Savvollar:

- A)
- V)
- S)

O'quvchilar javoblarini umumlashtirish.

3. Yangi mavzu bayoni (50-60 daqiqa)

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash (5-10 daqiqa)

Savollar: 1.

- 2.
- 3.

O'quvchilarning javolarini umumlashtirish .

Mavzuga qarab o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil qilish .

Uyga vazifa berish. (1-2 daqiqa)

3- ILOVA

\_\_\_\_\_ ixtisosligi  
\_\_\_\_\_ guruhda o'tkaziladi.

### ISHLAB CHIQARISH TA'LIMI DARS REJASI.

Dars mavzusi \_\_\_\_\_

Dars maqsadi \_\_\_\_\_

Moddiy-texnikaviy ta'minot \_\_\_\_\_

### DARSNING BORISHI.

#### I. Tashkiliy qism (ajratilgan vaqt ko'rsatilsin):

1. Davomadni tekshirish
2. O'quvchilarning tashqi ko'rinishi ( maxsus kiyimlarni ) tekshmrish .

#### II. Kirish instruktaji (vaqti ko'rsatilsin):

- 1.Dars mavzusini bayon qilish
- 2.Darsning maqsadini bayon qilish
- 3.Oldingi darslardan o'tilgan materiallar yuzasidan suhbat o'tkazish  
( savollar va o'quvchilar familiyasi ko'rsatilsin):

- a) \_\_\_\_\_
- b) \_\_\_\_\_
- v) \_\_\_\_\_

4.O'quvchilarga ish usullarini ko'rsatish taklif etish ( ish usullari va o'quvchilar familiyasi ko'rsatilsin):

- a) \_\_\_\_\_
- b) \_\_\_\_\_
- v) \_\_\_\_\_

5. Yangi materialni tushuntirish:

A) Berilgan ishning kasbni egallashdagi ahamiyati haqida gapirib berish.

B) Qanday qilib mahsulot (detal) larga ishlov berish, buni yaxshi o'rganib olish va malakani mustahkamlashni gapirib berish.

V) Tayyor mahsulot (detal) namuna, etalonlarni ko'rsatish.

G) Tayyorlangan detallar qayerlarga jo'natilishini va ular ishlab chiqarish uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini gapirib berish.

D) Chizmalar, texnikaviy talablarni tahlil qilish (o'quvchilar diqqatini chizma talablari va texnikaviy shartlarga qat'iy rioya qilishga jalb qilish).

YE) O'quvchilarning chizmani o'qish, materiallar texnologiyasi, maxsus texnologiyaga oid bilimlariga tayanib, savollar berish (savollar va o'quvchilarning familiyalarni ko'rsatilsin):

a) \_\_\_\_\_

b) \_\_\_\_\_

v) \_\_\_\_\_

J) Instruktsion (instruksion - texnologik) kartalar bo'yicha topshiriqlarning izchil bajarilishi haqida gapirib berish.

Z. Operatsiyalarni bajarishda (detallar tayyorlashda) ishlatiladigan jihozlar moslamalar asboblari haqida gapirib berish:

a) ish asbobi \_\_\_\_\_

b) o'lchov asbobi \_\_\_\_\_

v) moslamalar \_\_\_\_\_

g) jihozlar \_\_\_\_\_

I) Ish usullarini ko'rsatish (ish sur'atida va sekinlashtirilgan sur'atda, elementlarni ajratgan holda va yana ish sur'atida).

Y) Ishni bajarish jarayonida o'z - o'zini tekshirish haqida so'zlab berish va o'z - o'zini tekshirish usullarini ko'rsatish.

K) Operatsiyalar orasidagi tekshirish.

L) Topshiriqni bajarishda qo'llaniladigan ilg'or ish usullari.

M) Ish joyini maqsadga muvofiq tashkil etish.

N) Havfsizlik texnikasi qoidalarini haqida so'zlab berish: qo'yidagi savollarga alohida ahamiyat berish: Ishda brakning oldini olish (brak turlari va tipik xatolarni ko'rsatish).

O) Savollar yordamida o'quvchilarning o'rganilayotgan material bo'yicha o'zlashtirishlarini tekshirish (savollar ko'rsatilsin).

P) O'quvchilarning ishni to'g'ri tushunganliklariga ishonch hosil qilish, ularga ish usullarini bugun guruh oldida qayta ko'rsatishni taklif etish. Vaqt normasini (kompleks ishlarni bajarishdagi) ma'lum qilish.

R) O'quvchilarga baho mezonini bayon qilish.

S) Kirish instruktsiyasini xulosalash.

### **III. Joriy instruktsiya, mashqlar, mustaqil ishlar (vaqt ko'rsatiladi):**

Mashqlar (ko'rsatiladi): \_\_\_\_\_

Mustaqil ishlar (ko'rsatiladi): \_\_\_\_\_

Muayyan maqsad bilan o'quvchilarning ish o'rinlarini aylanib ko'rib chiqish.

Birinchi aylanish: ish joylarining ahvolini tekshirish. O'quvchilarga (familiyalari ko'rsatiladi) alohida ahamiyat berish.

Ikkinchi aylanish: ish usullarining to'g'ri bajarilishini tekshirish. O'quvchilarga (familiyalari ko'rsatiladi) alohida ahamiyat berish.

Uchinchi aylanish: o'z - o'zini nazorat qilishning to'g'ri olib borilayotganini tekshirish. Nazorat qilish usullarining o'quvchilar (familiyalari ko'rsatiladi) tomonidan bajarilishiga alohida ahamiyat berish.

To'rtinchi aylanish: ishda texnikaviy shartlarga rioya qilinishini tekshirish. Ishni qabul qilish va baholash. Yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarga qo'shimcha berish (ishlar ko'rsatiladi).

Beshinchi aylanish: ish (operatsiyalar) orasidagi nazoratning to'g'ri olib borilishini tekshirish.

### **IV. Yakunlovchi instruktsiya (vaqt ko'rsatiladi):**

1. Kunlik ishni yakunlash.
2. Har bir o'quvchi ishning sifatiga qo'yilgan bahoni bayon qilish.
3. O'quvchilardan kim ishni a'lo bajarganini aytib o'tish.
4. O'quvchilar ishidagi eng xarakterli kamchiliklarini tahlil qilish.

#### **V. Ish joyini yig'ishtirish:**

#### **VI. Navbatdagi dars uchun moddiy – texnika bazasini tayyorlash.**

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi \_\_\_\_\_  
 (famiyasi, imzosi)  
 “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 200\_\_ yil.

4 – ILOVA

#### **ISHLAB CHIQUARISH TA'LIMI DARS TAHLILI SXEMASI**

\_\_\_\_\_ ixtisosligi \_\_\_\_\_ kurs \_\_\_\_\_ guruhida ishlab chiqarish ustasi  
 \_\_\_\_\_ darsi TAHLILI

Dars mavzusi \_\_\_\_\_

Dars maqsadi \_\_\_\_\_

- Darsning boshlanishi (tashkiliy qismga sarflangan vaqt).
- Ishlab chiqarish ustasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi.
- Dars tuzilishiga baho.
- Dars rejasining bajarilishi.
- Ish sharoiti. Mashg'ulotning moddiy – texnik jihozlanishi:
  - ustaxonaning sanitar – gigiyenik holati;
  - zaruriy jihozlarning mavjudligi va ahvoli;
  - o'quvchilarning tekshiruv – o'lchov asboblari va ish moslamalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
  - ishlab chiqarish ustasi foydalangan o'quv – texnik hujjatlarining yetarliligi va sifati;
  - usta va o'quvchilar ish o'rinlarining tashkil qilinishi va ahvoli;
  - o'quvchilarning aniq ish ishlab chiqarish topshiriqlari, materiallar, detallar bilan ta'minlanganligi.

#### **Kirish instruktaji mazmuni va uni o'tkazish metodi:**

- dars maqsadining qo'yilishi;
- kirish instruktajiga materiallarning tanlanganligi;
- o'quvchilardan so'rash metodi;
- ko'rgazmali qurollar, instruksion va texnologik kartalardan foydalanish. Ustaning hunar – malakasi darajasi;
- Ustaning nutqi va uning tushuntirishi ta'sirchanligi;
- O'quvchilarning faolligi va e'tiborini oshirish yo'llari, zamonaviy texnika va texnologiya yutuqlarida foydalanish ilg'or mehnat usullarini qo'llash;
- Kirish instruktajini mustahkamlash metodi.

#### **Amaliy mashqlarning mazmuni va joriy instruktajni o'tkazish metodi:**

- Amaliy mashqlarning dars maqsadiga mosligi;
- Instruktajning tashkil qilinishi;
- Ustaning o'quvchi ish joylarini rejali aylanishi, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, aylanishlarning maqsadga mosligi;
  - O'quvchilarning topshiriqni bajarishdagi mustaqilligi darajasi;
  - Ish sifati, ishning borishini nazorat qilish va uni qabul qilish ishga qo'yilgan bahoning belgilangan ko'rsatkichlarga mos kelishi.

#### **Yakuniy instruktaj mazmuni va o'tkazish metodi:**

- Yakuniy instruktaj mazmuni (o'quvchilar ishini nazorat qilish va ishni qabul qilish o'quvchilar ishi sifati pastligi yoki ishining yaroqsizligi sabablari, havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish);
- O'quvchilarning ishga munosabati (qiziqishi, faolligi, qobiliyati, ishchanligi);
- O'quvchilarning ish joyini tartibli tutish va jihozlarni topshirish;
- Darsning tarbiyaviy ta'siri.

#### Uyga topshiriq berish:

- Topshiriqning o'z vaqtida berilishi va uning bajarilishi haqida yo'l – yo'riqlar ko'rsatilishi;
- Ustaning ishni tahlil qila bilishi, uning pedagogik ta'siri va o'zini tutishi;
- Darsda o'quvchilarning intizomi.

#### Dars haqida yakuniy fikrlar:

- O'quvchilarning dars mavzusi bo'yicha olgan bilim va malakalari darajasi;

Dars maqsadining bajarilishi, darsga baho, dars haqida mulohazalar.

#### **Darsni kuzatish bo'yicha tavsiyalar.**

Darsni kuzatish natijasida u haqida to'liq tasavvur vujudga kelishi kerak. Shuning uchun ma'lum tarzdagi umumiy talablarga rioya qilish lozim:

1. Dars haqida umumiy ma'lumot: sana, joyi, sinf, Fan, o'qituvchining ismi, familiyasi, nechanchi soat (darsning jadvaldagi o'рни), o'quvchilarning soni, bor – yo'qligi, amaliyotchi – talabalar qatnashishi.
2. Darsning maqsadi.
3. Tashkiliy qism. Asbob va zagotovkalarni tarqatish qanday o'tkaziladi, u yetarli saviyada o'tkazildimi?
4. O'tilgan materialni to'la qamrab oldimi? Ular aniq bir ma'nolimi? O'quvchilar javoblariga tavsif berish. O'quvchilar o'tilgan materialni o'zlashtirdi, deyishga asos bormi?
5. Yangi materialni tushntirish. Materialni bayon qilishda qanday metodlar qo'llaniladi? O'quvchilarning mehnat ta'limiva fan asoslariga doir predmetlar bo'yicha olgan bilimlariga tayanildimi, yetarlicha ko'rsatmalilik ta'minlandimi, o'qituvchi o'quvchilarni qiziqitira oldimi, ta'limda muammolilik qo'llandimi, yangi bilimlarning o'zlashtirishi tekshirildimi, u o'zini oqladimi?
6. Kirish instruktaji. Mehnat topshirig'iga xarakteristika berish: u o'quvchilarning qo'lidan keladimi, ularda qiziqish o'yg'otadimi? Topshiriqni bajarishda o'quvchilarning mehnat ta'limi va asoslariga doir nazariy bilimlaridan foydalanishi nazarda tutildimi? Topshiriqni bajarish bilan bog'liq ishning mazmuni kasb – hunar ta'limi o'quv dasturining o'rganilayotgan mavzusiga muvofiqmi? Buyumga qo'yiladigan talablar o'zini – o'zi nazorat qilish mezonlari ko'rsatildimi? Kirish instruktaji qanday o'tdi: qaysi ish usullari qo'llanildi, ularni namoyish etishda yetarlicha ko'rsatmalilik ta'minlandimi? O'quvchilar topshiriqni qanchalik tushungani tekshirildimi va bu tekshirish yetarlimi? Havfsizlik texnikasi qoidalariga e'tibor qanday? Kirish instruktajida o'quvchilar qanday ishtirok etdilar? Ular passiv tinglovchi va kuzatuvchi bo'ldilarmi yoki o'qituvchi ularni ayrim masalalarni hal qilishga jalb etdimi?
7. O'quvchilarni mustaqil ishi. O'quvchilar ishini tashkil qilishning qanday shakllari qo'llandi? O'quvchilar qanday xatolarga yo'l qo'ydilar, bular tipik xatolarmi? O'qituvchi o'quvchilarning xatolariga qanday munosabatda bo'ldi? Qanday joriy instruktajlar o'tkazildi? Ular oldindan rejalashtirilganmi? Joriy instruktaj o'z vaqtida o'tkazildi, deyish mumkinmi? O'quvchilar jismoniy ishdan dam olishlari uchun tanaffuslar rejalashtirilganmi, bu tanaffuslardan o'qituvchi qanday foydalandi? O'quvchilar mehnat topshirig'ini bajarish bilan bog'liq ba'zi masalalarni mustaqil hal qilishlariga to'g'ri keldimi, ular bu ishni bajara oldilarmi? O'qituvchi umuman guruhning va alohida har bir o'quvchining faoliyati ustidan nazoratni ta'minladimi? O'qituvchi kuchli o'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriqlarni nazarda tutdimi? O'quvchilarda o'z – o'zini nazorat qilish malakalarini shakllantirishga yetarlicha e'tior berildimi?

8. Yakunlovchi instruktaj. Bu instruktaj qancha vaqt ketdi, u nima haqida bo'ldi? Mashg'ulot qanchalik chuqur va to'liq yakunlandi? Tipik xatolar, yaxshi va ko'ngildagidek chiqmagan buyumlar ko'rsatildimi?
9. Ish o'rinlarini yig'ishtirish. Ish o'rinlarini yig'ishtirish qancha vaqt oldi? O'quvchilar yig'ishtirish uchun barcha zarur narsalar bilan ta'minlandimi? Ish o'rinlarini yig'ishtirishning sifati kim tomonidan va qanday tekshirildi? Ish o'rnining ozodaligi uchun musobaqa o'tkazildimi? Bu musobaqada sinf faollari qanday rol o'ynaydi?

Umumiy xulosa. Dars qanday elementlardan tashkil topdi? Dars tipi. O'qituvchi ko'zlagan maqsadga erishdimi?

6 – ILOVA

### Darsni tahlil qilish va baholash.

| №                                      | Baholash mezonlari                                                                        | Baholash darajasi |   |   |   |
|----------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|---|---|---|
| I. Dars oʻtish mahorati                |                                                                                           | 1                 | 2 | 3 | 4 |
| 1                                      | Asosiy mavzuning aniq yoritilganligi                                                      | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 2                                      | Darsni aniq reja asosida olib borilganligi                                                | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 3                                      | Koʻrgazmali qurollardan samarali foydalanganligi                                          | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 4                                      | Oʻqituvchining oʻzini tuta bilishi                                                        | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 5                                      | Oʻqituvchining oʻquvchini oʻziga jalb qila olish mahorati                                 | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 6                                      | Oʻqituvchining his – hayajon bilan dars oʻtishi                                           | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 7                                      | Oʻqituvchining oʻquvchilarni darsga faol qatnashishini taʼminlay olishi                   | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 8                                      | Oʻqituvchining berilgan savollarga savodxonlik bilan javob bera olishi va unga munosabati | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 9                                      | Oʻqituvchining nutq madaniyati                                                            | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| II. Dars mazmuni va metodini baholash. |                                                                                           |                   |   |   |   |
| 10                                     | Dars maqsadining aniq ifoda etilganligi                                                   | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 11                                     | Tanlangan metodning dars mazmunining moligi va unga amal qilinishi                        | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 12                                     | Dars mazmunining aniq ifoda etilishi                                                      | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 13                                     | Oʻz vaqtida mantiqiy va tushunarli misollarning keltirilishi                              | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 14                                     | Oʻquv tekshirib borganligi                                                                | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 15                                     | Darsda kirish, asosiy va yakunlovchi qismlarning mavjudligi                               | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 16                                     | Darsning mazmuniga mos jihozlanishi                                                       | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 17                                     | Darsning mustahkamlanishi                                                                 | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 18                                     | Darsda oʻquvchilarning mustaqilligini taʼminlash                                          | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 19                                     | Uyga vazifaning aniq va mukammalligi                                                      | 5                 | 4 | 3 | 2 |
| 20                                     | Umuman olganda dars...                                                                    | 5                 | 4 | 3 | 2 |

A'lo – 86-100%                      yaxshi – 71-85%  
qoniqarli – 56-70%      Qoniqarsiz – 55%

Imzo: \_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

|                             |  |
|-----------------------------|--|
| Tushuntirish xati .....     |  |
| Amaliy mashgʻulot №1 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №2 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №3 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №4 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №5 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №6 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №7 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №8 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №9 .....  |  |
| Amaliy mashgʻulot №10 ..... |  |
| Amaliy mashgʻulot №11 ..... |  |
| Amaliy mashgʻulot №12 ..... |  |
| Amaliy mashgʻulot №13 ..... |  |
| Amaliy mashgʻulot №14 ..... |  |
| Ilova .....                 |  |